

QO'SHCHINORSOY QOYATOSH RASMLARI

Oynazarov Xoliyor G'oyibnazarovich

O'zRFA Antropologiya institutida

katta ilmiy xodim, PhD,

Abdurashidov Davronbek Abdurashidovich

Qashqadaryo viloyat Madaniy meros

boshqarmasida bosh mutaxassis,

Xurramov Feruz Davlat o'g'li

Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasida

arxeologik yodgorliklar filial mudiri.

O'zbekiston hududida ilk san'at, yozuv va ma'naviy madaniyatning paydo bo'lishi hamda rivojlanishi haqida ma'lumot beruvchi manbaalardan biri bu qoyatosh rasmlaridir. Qoyatosh rasmlarini o'rganish orqali nafaqat qadimgi ajdodlarimizning estetik, balki diniy dunyoqarashi, xo'jalik mashg'uloti va kundalik turmush-tarzi haqida ham xulosalar chiqarish mumkin. Bugungacha Markaziy Osiyo mintaqasida 1300 dan ortiq qoyatosh suratlari manzili aniqlangan va hisobga olingan. Ulardan 250 ga yaqini O'zbekiston hududida joylashgan. Respublikamizda bu kabi qoyatosh yodgorliklari ko'plab uchraydi.

Bu madaniy yodgorliklar tosh, jez, temir, po'lat, yoki boshqa hildagi qattiq buyumlar yordamida o'yish, urib-cho'kichlash, chizish va ishqalash vositasi natijasida ishlangan rasmlardir. Bunday uslubda ishlangan rasmlar fanda petrogliflar ya'ni toshlarga ishlangan rasmlar deb ataladi. (A. Xolmatov 2016) Petrogliflar (yunoncha "petro"- tosh, "glyphe" – o'yish) ya'ni toshga o'yma naqsh solish deb yuritiladi (M. Xo'janazarov 2018). Petrogliflar respublikamiz hududida joylashgan deyarli barcha tog'larda uchraydi. Bunday tizmalarga Qorjontog', Chotqol, Hisor, Pskom, Ugom, Qotrontog', Morguzar, Nurota, Oqtog', Qoratog', Ko'hitangtog', Zirabuloq, Bukantog' va boshqa shu kabi tog' tizmalarini kiritish mumkin.

Shu yilning bahor fasli oxirlarida Antropologiya institutiga Qashqadaryo viloyati Kitob tumani tog'li Qo'shchinor qishlog'ida yashovchi fuqaro A.X. Qodirov, Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasi arxeologik yodgorliklar filliyal mudri

F.D.Xurramov va Qashqadaryo viloyat Madaniy meros boshqarmasi bosh mutaxassisi D.A.Abdurashidovlar tomonidan mazkur hududlarda qoyatosh suratlari mavjudligi haqida ma'lumoti kelib tushdi. Ushbu ma'lumotlarga tayanib Antropologiya instituti katta ilmiy xodimi X. G'. Oynazarov, Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasi arxeologik yodgorliklar filliyal mudri F.D. Xurramov va Qashqadaryo viloyat Madaniy meros boshqarmasi bosh mutaxassisi D.A.

Abdurashidovlar aprel-may oylarida hududga borib, qoyatosh rasmlarini borligini qayd etishdi.

Mazkur qoyatosh rasmlari Zarafshon tog' tizmasining g'arbiy tomoni Chaqilqalon tog'ining janubiy yonbag'rida joylashgan, Qo'shchinor qishlog'idan 2 km uzoqlikda, qishloqning shimoli-g'arb tomonidagi soylar atrofida aniqlandi. Mazkur soydan bir qator qoyatosh suratlari aniqlandi va ibtidoiy san'at tarixini o'rganish bo'yicha muhim yangilik qilindi.

Chaqilqalon tog'ining janubiy yonbag'rida asosan paleozoy (silur) ohaktoshlaridan, quyi va o'rta paleozoyning slaneslaridan tarkib topgan, bu jinslar qatlamlari qiya prachalangan. Chaqilqalon tog'i Taxta Qoracha davoniga (dengiz sathidan 1788 m) qadar davom etadi, so'ngra davondan g'arbda Qoratepa tog'lari cho'zilib ketadi. Bu yerda tog'lar kengayib, kengligi 35 km ga, uzunligi 50 km gacha boradi. Tog'larning markaziy qismlari intruziv jinslardan tashkil topgan, tog' etaklari va yonbag'irlari yumshoq cho'kindi jinslar bilan qoplangan. Qo'shchinor qishlog'i hududida olib borilgan tadqiqot ishlari davomida bu yerdagi soylardan bir nechta qoyatosh suratlari topib o'rganildi. Ushbu soydan aniqlangan rasmlar, Qo'shchinorsoyning o'rta va yuqori oqimi hududlarida joylashgan. Ularning koordinatalari, suv sathidan balandligi va egallagan yuzasi belgilab olindi.

Ushbu qoyatosh rasmlar dengiz sathidan 1200-1600 m. balandlikda joylashgan. Rasmlar silliq, sathi tekis qoyatoshlar yuzasida, tosh, jez, temir, po'lat yoki boshqa xildagi qattiq buyumlar yordamida qadimgi rassomlar tomonidan urib-cho'kichlanib, o'ta mohirlik bilan chizilgan. Dastlabki kuzatishlar natijasida bu yerdan jami 12 ta qoyatoshda 100 ga yaqin lavhalar aniqlandi. Topilgan qoyatosh rasmlari aholi manzillaridan 2-2,5 kilometr masofada, soyning ichki qismidagi qoyalarda joylashgan. Yakka yoki kompozitsiya holidagi rasmlarni chizish uchun soyning o'ng qirg'og'ida joylashgan tosh yoki qoya yuzalari tanlangan. Rasmlarning barchasi janub va shimoli-g'arbga qaratib ishlangan.

Qo'shchinorsoydan aniqlangan qoyatosh rasmlarida zoomorf tasvirlar bilan birga inson tasviri ham mavjud. Zoomorf tasvirlar ot, it, bo'ri, kiyik, buqa, tuya, tog' echkisi va turli xil geometrik belgilar tasvirlaridan iborat. Qoyatosh rasmlari orasida tog' echkisi ko'proq uchrab, kishi diqqatini o'ziga tortadi. Tasvirlarda tog' echkilari alohida yoki guruh holida, kompozitsiya qilib ham tasvirlangan. Bir qoyatosh sirtida yonma-yon ketayotgan uchta tog' echkilari aks ettirilgan. Uchinchi rasm keyingi davr odamlari tomonidan yuqoridagi suratga taqlid qilib chizilgandek ko'rinadi. Lekin bu rasmning ba'zi joylarida qadimgi kontur chiziqlarini ko'rish mumkin. Balki qadimgi rassom bu chizmani butunlay yakunlamagan bo'lishi ham mumkin. Tog' echkilarining tasvirlari kishi diqqatini o'ziga tortadi. Sababi, bu rasmlarda hayvon tanasi a'zolarining holatlari jonli, tabiiy holatda, mohirona tasvirlangan (1,2,3-rasmlar). Ushbu qoyatosh rasmlari Sarmishsoy (Kabirov 1976, 18-28 b.), Ilonlisoy, (Shaskiy G.B. 1973.)

Qoraqiyasoy, (Xo'janazarov M. 1995. 68.). Quduqchasoy, (Xo'janazarov M., Xolmatov A. 2014. 103b.) Noqiyasoy (Xolmatov A., 2010.103.), Gadoytepmassoy (Oynazarov X.G'. 2019 98.), Sayskanduk (Samashev Z. 2014.35.), Tamg'ali (Rogojinskiy A. Ye. 2011.193), va deyarli Markaziy Osiyo tog'laridan topilgan deyarli barcha qoyatosh yodgorliklariga xosdir.

Qo'shchinorsoydan aniqlangan tog' echkisi tasviri hududda topilgan boshqa shu turdagi tasvirlardan biroz farq qiladi. Ushbu farq tasvir tushirilgan qoyatosh sathi va uning joylashgan o'rnida ham ko'zga tashlanadi. Rasm soyning nisbatan kengaygan janubiy qismida, soyning o'ng tomonida, soy sathi bilan bir xil balandlikda, biroz yotiq joylashgan qoyatosh bo'lagi yuzasiga ishlangan.

Barcha rasmlar kontur, sxematik, naqshdor bezakli va soya uslubida chizilgan. Kontur va naqshdor bezakli uslubi boshqa uslubda ishlangan tasvirlardan o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu usulda chizilgan hayvonlarning bosh qismi, quloq va oyoqlari soya tarzida urib-cho'kichlanib butun tanasi gir-aylana chizib chiqiladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, dastlabki xulosaga kelishimiz mumkin, yangi qoyatosh suratlari Markaziy Osiyoning ibtidoiy davr san'ati tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Qo'shchinorsoy qoyatosh suratlari tahlili ularning ishlanish texnikasi, uslubi, mazmuni, o'lchami va quyosh nurida qorayish darajasiga ko'ra bir-biriga o'xshashligini ko'rsatdi. Rasmlarning saqlanishi va sirtining yedirilish holatida ham farqlar sezilmaydi. Tasvirlardagi bu umumiylik tasodifiy bo'lmasdan, balki ularning xronologik jihatdan turli davrlarga ishlanganligidan dalolat beradi. Ushbu qoyatosh suratlari so'ngi bronza, temir, ilk va o'rta asr davri bilan xarakterlanadi. Qo'shchinorsoy petrogliflari ustidagi ilmiy tadqiqot ishlarimiz davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **Kabirov A.** Sarmishsoyning qoyatoshlaridagi rasmlar. Toshkent, 1976. 33b.
2. **Oynazarov X.G'.** Gadoytopmassoy petrogliflari // "O'tmishga nazar" jurnali. 15-son, 2019 yil. 98-105 b.
3. **Xujanazarov M.** Naskalnye izobrajeniya Xodjakenta i Karakiyasaya. Samarkand, 1995. 13-14b
4. **Xolmatov A.N.** Noqisoy yangi qoyatosh rasmlari // O'zbekiston arxeologiyasi, №1. Samarqand, 2010. 166-169 bb.
5. **Xolmatov A.N., Xo'janazarov M.** Quduqchasoy qoyatosh rasmlari // O'zbekiston arxeologiyasi, № 2(9). Samarqand, 2014.103-104b
6. **Shaskiy G. B.** Risunki na kamne. Tashkent,1973. str. 69.
7. **Rogojinskiy A. Ye.** Petroglify arxeologicheskogo landshafta Tamgalы Алматы, 2011 s.193-195 ris. 155,157.



a



b

1-rasm a,b.



2-rasm



3- rasm